

“Korrupsiya – kelajakka tahdid” mavzusidagi loyihalar tanlovini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi NIZOM

1. Umumiy qoidalar

1.1. Tanlov ilmiy-startap loyihalar yaratish va loyihalarini rivojlantirish istagida bo‘lgan magistr va talaba-yoshlar o‘rtasida o‘tkaziladi.

1.2. Loyihalar tanlovi iqtidorli, iste’dodli va tashabbuskor talaba yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning g‘oya va loyihalarini ro‘yobga chiqarish, amalyotga tatbiq etishga ko‘maklashish hamda moddiy va ma‘naviy rag‘batlantirish maqsadida tashkil etiladi.

1.3. Tanlovga avval e‘lon qilingan g‘oyalar bilan ishtirok etish man etiladi.

2. Tanlovlarining maqsadi va vazifalari

2.1. Tanlovlarning umumiy maqsadi iqtidorli yoshlarning korrupsiyaga qarshi kurashish uchun yaratilgan loyihalarini izlash va aniqlash, ularni ta‘lim tizimida qo‘llash va natijalarga erishishdan iborat.

2.2. Tanlovlarning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilangan:

– yoshlar, institutlar, tadqiqot doiralari, xususiy sektor, nodavlat notijorat tashkilotlar o‘rtasida startap faoliyat madaniyati va muhitini shakllantirish;

– eng yaxshi g‘oyalar va loyihalar jamoalarini aniqlash, ularni rag‘banlantiruvchi sovrinlar bilan mukofotlash hamda loyihalarni amalga oshirish uchun maqsadli yo‘naltirish ishlarini tashkil etish.

3. Tanlovlarda ishtirok etish shartlari va talablari

3.1. Tanlovning ishchi tili o‘zbek, ingliz, rus tillari hisoblanadi.

3.2. Tanlovda bakalavr va magistratura talabalari ishtirok etishi mumkin.

3.3. Tanlovda ishtirokchilar jamoa (2-5 nafargacha) yoki yakka tartibda ishtirok etib, belgilagan vaqt davomida tayyorlagan loyihalari yoki g‘oyalarini tanlov kuni taqdimot qiladi.

3.4. Tanlov ishtirokchilaridan halollik va mos tarzda fikrlay olish talab qilinadi.

4. Tanlovlarning o‘tkazish tartibi va muddati

4.1. Tanlov e‘lon qilingan kundan boshlab iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limiga hujjatlar topshiriladi.

4.2. Tanlovga bir kun qolganda arizalarni qabul qilish to‘xtatiladi va tanlov kuni tanlovda qatnashish uchun ishtirokchi arizasi bilan kelgan nomzodlar tanlovga qo‘yilmaydi.

4.3. Tanlovga taqdim etilgan g‘oyalar ta‘lim tizimidagi muammolar va istiqbolli yo‘nalishlarga tegishli ekanligi e‘tiborga olinadi.

5. Tanlov ishtirokchilari quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

№	Mezonlar	Asos (fakt)	Ball	Izoh
1	G'oyaning ilmiy va innovatsion yangiligi	Amalga oshirilgan yoki taklif etilayotgan yangi loyiha taqdimoti asosida	20 ball	Ishtirokchi tomonidan amalga oshirgan ishlari yoki taklif etayotgan yangi g'oyasining taqdimoti ko'rib chiqilib, dolzarbligi jihatidan baholanadi. Go'yani amalga oshirish mexanizmini to'liq ochib berishi kerak va kutilayotgan natijani aniq dalillar bilan ko'rsatib berishi kerak bo'ladi.
2	G'oyaning aniq bir muammoning yechimiga yo'naltirilganligi		20 ball	
3	Mavjud analoglaridan afzalligi		20 ball	
4	G'oyaning amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar		20 ball	
5	Taqdim etilayotgan g'oyaning mukammalligi	O'rnatilgan tartibdagi savol-javoblar asosida	20 ball	Hakamlar hay'ati a'zolarining savollariga berilgan javoblarga qarab baholanadi.
Jami:			100 ball	

5.1. Tanlov ishtirokchilari komissiya a'zolariga taqdim etilayotgan g'oyaning ilmiy va amaliy hamda ijtimoiy ahamiyatini tushuntirib bera olishi lozim.

Tanlov ishtirokchilarini mezonlariga muvofiq baholash uchun Hakamlar hay'ati tarkibi tasdiqlanadi. Hakamlar hay'ati tomonidan g'oyalar ko'rib chiqiladi va g'oliblar aniqlanadi.

6. Tanlov g'oliblarini mukofotlash

6.1. Tanlov yakunlariga ko'ra eng yuqori natijaga ega bo'lib, 1-2-3-o'rinlarni egallagan g'oliblar (jamoalar) quyida ko'rsatilgan miqdordagi pul mukofotlari yoki mazkur qiymatdagi qimmatbaho esdalik sovg'alari va diplomlar bilan taqdirlanadilar:

- 1-o'rin – 3 000 000 (uch million) so'm;
- 2-o'rin – 2 000 000 (ikki million) so'm;
- 3-o'rin – 1 000 000 (bir million) so'm.

6.2. Mukofot tanlovda g'olib bo'lganlarga, uning mualliflari sonidan qat'iy nazar, belgilangan qiymatda beriladi. Agar jamoa shaklida ishtirok etgan ishtirokchilarning g'oyasi g'oliblikni qo'lga kiritsa, jamoa a'zolarining har biriga mukofot summasi teng miqdorlarda taqsimlanadi.